

QURILISH TERMINLARINING TARIXIY BOSQICHI

Sag'dullayev Ma'ruf Ilhom o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Toshkent filiali assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqola qurilish terminlari rivojlanishining ilk bosqichlari haqida yozilgan. Qadimgi davrlarda ham insonlar uylar qurishgan va ularga qurol-aslahalardan foydalanishgan. Bu bir nechta terminlar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: mengir, dolmen, kromlex, mastaba, megalitik.

Аннотация: эта статья о ранних этапах развития условий строительства. Даже в древние времена люди строили дома и использовали оружие. Он основан на нескольких терминах.

Ключевые слова: зеркало, дольмен, Cromlex, Mastaba, мегалитики.


Annotation: This article is about the early stages of development of construction conditions. Even in ancient times, people built houses and used weapons. It is based on a few terms.

Keywords: Mirror, Dolmen, Cromlex, Mastaba, megalithics.

Insoniyat yaralibdiki, uning faoliyati turli xil qurilishlar bilan bog'liq. Bu qadimgi davrda qurilishga oid atamalar va terminlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Qurilish terminlarining tarixiy shakllanishi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u turli davrlar, geografik hududlar va madaniyatlar orasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida rivojlangan. Qurilish sohasidagi atamalar zamon o'tishi bilan o'zgarib, yangilanishi va o'ziga xos shakllarini topishi tabiiydir.

Qurilishning dastlabki bosqichlari odatda insoniyatning ilk madaniy rivojlanish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda qurilish jarayonlari juda oddiy va amaliy bo'lib, atamalar deyarli mavjud emasdi. Odamlar tabiatdan foydalanib, oddiy boshpana yoki turar joylar qurishga boshlaganlar. Bu davrda "uy" yoki "bino" kabi oddiy atamalar

mavjud bo'lgan. Keyinchalik bularga megalitik qurilmalar (dolmenlar, mengirlar, kromlexlar) deb nom qo'yilgan. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar neolitning so'nggi va bronza asrida yuzaga kelgan megalitik qurilmalarida yaqqol seziladi. Odamlarning diniy tushunchalari ota-bobolar ruhi (arvohi) bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu qurilmalar katta toshlardan ko'pchilik kuchi bilan barpo etilgan. Bu qurilmalar uch — mengir, dolmen, kromlex tiplarida barpo bo'lgan. [1. 2018. B.17]



Mengirlar o'z xarakteri jihatidan tik o'rnatilgan katta toshlar bo'lib, ularning balandligi 20 metrgacha yetgan. Ba'zan mengirlar baliq, odam, hayvon shakllariga o'xshatib ishlangan, ko'p hollarda mengirlar yuzasiga bo'rtma tasvirlar ishlangan. Bunday yodgorliklar Yevroosiyo hududida (Armaniston, Qozog'iston,

Sibir)da ham ko'plab uchraydi. [1. 2018. B.17]




Dolmenlar tik o'rnatilgan ikki yoki to'rt tosh ustundan tashkil topgan bo'lib, ularning ustki qismlari ham shunday yaxlit yassi toshlar bilan berkitilgan. Tosh ustunlar yuzasi pardozlangan, ba'zan ramziy belgilar chizilgan. Bu yodgorliklar qabrtosh vazifasini bajargan bo'lishi mumkin.

Qisman turar joy vazifasini ham o'tagan. Dolmenlar o'z ko'rinishi va qurilishi, prinsipi jihatidan dastlabki monumental me'morchilik namunasi hisoblanadi. [1. 2018. B.17]



Kromlex aylana bo'ylab tik o'rnatilgan toshlardan qurilgan bo'lib, ular tosh to'sinlar bilan birlashtirilgan. Angliyada Stounxendj yaqinidagi kromlex shu tipdagi qurilmaning klassik namunasi. Dolmen va kromlex yodgorliklari G'arbiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Kavkaz, Sibir va Qozog'iston yerlarida uchraydi. [1. 2018. B.17]



Mastaba deb nom olgan bu qurilmalar Sakkara, Abidos, Niagada qabristonlarida ko‘plab saqlanib qolgan. Bu mastabalar hajmi va bezagi, qabr ichiga qo‘yilgan buyumlar xarakteri marhumning jamoada tutgan o‘rniga qarab belgilangan. Mastabalar keyingi Misr klassik piramidalarining yaratilishiga asos bo‘lgan.

Qadimgi Gretsiyada ibodatxonalar qurish an‘ana bo‘lgan. Biz ibodatxona turi nomlari bilan tanishib chiqdik Ular quyidagicha:

Prostil – ibodatxonaning eng tugal ko‘rinishi yoki nusxasi;

Peripter – klassik ibodatxona namunasi;

Order – ustunlarning tartib bilan konstruksion bir tizimga ega bo‘lishi;

Antablement – to‘sin;

Abak – to‘rtburchak shaklidagi plita;

Metop – to‘g‘ri to‘rtburchak plita;

Tringlif – vertical tarnovchali-kannelurli plita. [1. 2018. B.132]

Qurilish terminlarining tarixiy shakllanishi insoniyatning qurilish sohasidagi bilim va texnologiyalarining rivojlanishini aks ettiradi. Bu jarayon qadim zamonlardan boshlangan bo‘lib, har bir davrning o‘ziga xos ixtisoslashgan atamalarini yaratgan. Qurilishning rivojlanishi bilan yangi terminlar shakllandi, va ular nafaqat me‘morlik, balki muhandislik, sanoat, ekologiya va texnologiya sohalarini ham o‘z ichiga oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Abdullayev. Arxitektura tarixi, T.:2018. B 276
2. D. Asqarova, M.Miryusupova. Kichik me‘moriy shakllar, O‘quv qo‘llanma. 2005-y.
3. O. Sobirov. O‘zbek tilida arxitektura va qurilish terminlarining semantik xususiyatlari.